

**Autsorsing shartlari asosida xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha
SHARTNOMA № 9924**

Termiz shahri

2022-yil 9, Mart

Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi surxondaryo filiali nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi (muassasa nomi) E.A.Tulaganovich (keyingi o'rinlarda Buyurtmachi deb ataladi) bir tomondan va "Shaxnoza parvina taraqqiyot sari" MChJ nomidan Ustav (ishonchnoma) asosida (tashkilot nomi) faoliyat yurituvchi direktor A.Buranov (keyingi o'rinlarda Autsorsyer deb ataladi), ikkinchi tomondan keyinchalik Tomonlar-deb ataladi, ushbu Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

I. Shartnoma predmeti

1.1. Autsorsyer Buyurtmachining buyurtmasi bo'yicha mazkur Shartnomaning 1.2-bandida ko'rsatib o'tilgan xizmatlarni ko'rsatish, Buyurtmachi esa ushbu xizmatlar uchun pul to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Autsorsyer mazkur shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan muddatdan boshlab, u tugaguniga qadar har kuni Buyurtmachini Birlashmaga qarashli markaziy shifoxonasida yotib davolanuvchi bemorlar uchun tayyor issiq ovqat yetkazib berish (autsorsyerga o'tkazilgan xizmat nomi)

hunda O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari bilan belgilangan sanitariya-gigiena normalari va qoidalariga rioya etgan holda, Buyurtmachi bilan kelishilgan buyurtmalarni bajarish jadvaliga muvofiq ta'minlash majburiyatini, keyingi o'rinlarda Xizmatlar deb ataladi, o'z zimmasiga oladi.

1.3. Xizmat ko'rsatish muddati:

2022 yil « 05 » martdan

2022 yil « 31 » dekabrigacha.

1.4. Tomonlar bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va Autsorsyer tomonidan amalda ko'rsatilgan Xizmatlar uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hisob-faktura imzolanib Buyurtmachi Autsorsyerning mazkur Shartnomada ko'rsatilgan bank hisob-raqamiga pul mablag'lari o'tkazgandan so'ng Xizmatlar ko'rsatilgan deb hisoblanadi.

II. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

2.1. Autsorsyer quyidagi huquqlarga ega:

2.1.1. Ijaraga olingan mol-mulkdan foydalanish;

2.1.2. Ijaraga olingan bino va inshootlarning ichki va tashqi qismida texnik jihatdan jihozlash va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish;

2.1.3. Xizmatlar tannarxining o'zgarishi munosabati bilan shartnomaga o'zgartirish kiritish taklifi bilan chiqish;

2.1.4. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'z vaqtida to'lovlar amalga oshirilishini talab qilish;

2.1.5. Ko'rsatilgan xizmatlar natijasida foyda olish;

2.1.6. Buyurtmachidan shartnoma shartlarining bajarilishini talab qilish;

2.1.7. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlar.

2.2. Autsorsyer quyidagilarga majbur:

2.2.1. Ijaraga olingan bino va inshootlar, jihozlardan maqsadli hamda oqilona foydalanishi, saqlashi, nosoz holga kelganda ularni o'z hisobidan ta'mirlashi, shuningdek, kommunal xarajatlarini qoplashi;

2.2.2. Autsorsing xizmatini ko'rsatishda texnika, yong'in, mehnat muhofazasi hamda sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normalilariga qat'iy rioya etishi;

2.2.3. Tovar (ishlar, xizmatlar)ning sifatli ishlab chiqarilishini va buyurtmachiga yetkazilishini ta'minlashi;

2.2.4. Maxfiylik tartibiga qat'iy rioya qilishi;

2.2.5. Shartnomani bekor qilish haqida buyurtmachini ikki oy oldin yozma ravishda ogohlantirish, ushbu muddat tugaguniga qadar esa buyurtmachining tegishli xizmatlarini uzluksiz tashkil etishni ta'minlashi;

2.2.6. Xizmatlarni sifatli, mazkur Shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan muddatda va to'liq hajmda ko'rsatishi;

2.2.7. Xizmatlar ko'rsatish jarayonida Autsorsyer mazkur shartnoma shartlariga amal qilmasdan, xizmatlar sifatining yomonlashuviga olib kelgan barcha kamchiliklarni Buyurtmachining talabi bo'yicha bir kun davomida bepul to'g'rilashi;

2.2.8. Xizmatlarning sifatizligi, xizmatlarni bajarish uchun vaqtincha foydalanishga byeriladigan ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) xonalari holati, shuningdek, tegishli inventarlarning sanitariya qoidalariga javob byermasligi aniqlanganda, Autsorsyer zudlik bilan Buyurtmachining aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha qonuniy talabini bajarishi;

2.2.9. Malakali, tajribali, qo'yilgan vazifani (xizmatni, ishni) amalga oshirish huquqini byeruvchi tegishli hujjatlari mavjud bo'lgan, shuningdek, belgilangan tartibda va muddatda tibbiy tekshiruvdan (ko'rikdan) o'tgan xodimlarga (talab etilgan hollarda) xizmatlarni bajarish jarayoniga ruxsat etishi;

- 2.2.10. Xodimlar zimmasiga Buyurtmachining hududida odob-axloq qoidalariga, shuningdek, ichki tartibga rioya qilish majburiyatini yuklashi;
- 2.2.11. Xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni shaxsan bajarishi, mazkur Shartnoma shartlarini bajarishni uchinchi shaxsga topshirmasligi;
- 2.2.12. Mazkur shartnoma shartlarini bajarish doirasida Buyurtmachi tomonidan vaqtincha foydalanishga topshirilgan uskunalar, jihozlar, idishlar, asboblari, mebellar, inventarlar va boshqalar moddiy vositalarni soz holda saqlashi, ta'mirlashi, shuningdek, binolarni ta'mirlashi;
- 2.2.13. Tomonlar imzolaydigan tegishli qabul qilish-topshirish dalolatnomasini rasmiylashtirgan holda, Buyurtmachidan binolarni (xonalarni), uskunalarni, jihozlarni, asboblarni, mebellarni, inventarlar va boshqalar moddiy vositalarni qabul qilib olishi;
- 2.2.14. Mazkur shartnomani bekor qilish haqida -Buyurtmachini ikki oy oldin yozma ravishda ogohlantirishi, ushbu muddat tugaguniga qadar esa Buyurtmachiga xizmatlarni uzluksiz ko'rsatilishini ta'minlashi;
- 2.2.15. Mazkur shartnomaga asosan Xizmatlarni ko'rsatish ishlariga jalb etilgan xodimlarni o'qitishni (malakasini oshirishni) amalga oshirishi (talab etilgan hollarda);
- 2.2.16. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar;
- 2.3. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:
- 2.3.1. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) sifatli ishlab chiqarilishi (bajarilishi, ko'rsatilishi)ni talab qilish;
- 2.3.2. Outsorsyerning faoliyatiga aralashmagan holda, shartnoma shartlarining bajarilishini nazorat qilish;
- 2.3.3. Shartnomani bekor qilish to'g'risida 10 kun oldin Outsorsyerni yozma ravishda ogohlantirish, bunda ko'rsatilgan xizmatlarning qiymatini belgilangan tartibda to'lash;
- 2.3.4. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlar.
- 2.4. Buyurtmachi quyidagilarga majbur:
- 2.4.1. Bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va rasmiylashtirilgan hisob-faktura asosida ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi narxlar bo'yicha bir oyda kamida bir marta Xizmatlar haqini to'lashi;
- 2.4.2. Outsorsyerga mazkur Shartnoma shartlarini bajarish doirasida binolarni (xonalarni), uskunalarni, jihozlarni, asboblarni, mebellarni, inventarlar va boshqa moddiy vositalarni vaqtincha foydalanishga byerishi;
- 2.4.3. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar.

III. Xizmatlar narxi va o'zaro hisob-kitoblar tartibi

- 3.1. Mazkur shartnomaning ilovasiga muvofiq xizmatlar narxi 99 394 035 (To'qson to'qqiz million uch yuz to'qson turt ming o'ttiz besh) so'mni tashkil etadi.
- 3.2. Outsorsyer tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'zaro hisob-kitoblar bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va rasmiylashtirilgan hisob-faktura asosida ko'rsatilgan xizmatlarning amaldagi qiymati bo'yicha bir oyda kamida bir marta amalga oshiriladi.
- 3.3. Ko'rsatiladigan xizmatlarning amaldagi soni haqidagi ma'lumotlar va xizmatlarning amaldagi narxi asosida Buyurtmachi kundalik buyurtmaga muvofiq Outsorsyer bilan birgalikda har o'n kunda, to'lanishi lozim bo'lgan summasi ko'rsatilgan, Outsorsyer va Buyurtmachi tomonidan imzoladigan bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi tuziladi va hisob-faktura rasmiylashtiradi.
- 3.4. Buyurtmachi tomonidan amalda ko'rsatilgan xizmatlar narxi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bajarilgan ishlar dalolatnomasi va hisob-faktura olingan vaqtdan boshlab, 10 bank kuni davomida Shartnomada belgilangan summadan ortiq bo'lmagan miqdorda to'lanadi.
- 3.5. Mazkur Shartnomaning ilovasida ko'rsatilgan, shartnomaning prognoz summasini hisoblash uchun xizmatlarning narxlari tomonlardan birining tashabbusi bilan qayta ko'rib chiqiladi.

IV. Tomonlarning majburiyatlari

- 4.1. Outsorsyer shartnoma majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmagan hollarda, Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,5 foiz miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan xizmatlar oylik narxining 50 foizidan oshmasligi kyerak.
- 4.2. Penya (jarima) to'lash Tomonlarning zimmasidagi majburiyatlarini bajarishdan yoki buzilishlarni bartaraf qilishdan ozod etmaydi.
- 4.3. Mazkur Shartnoma shartlarining bajarilmasligi yoki tegishli darajada bajarilmasligi uchun Tomonlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi talablarida, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlarida nazarda tutilgan javobgar bo'ladilar.
- 4.4. Buyurtmachiga har chorakda bir marotaba ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati, ijraga byerilgan bino va inshootlarning holatini monitoring o'tkazishga (outsorsyerning moliyaviy faoliyatiga aralashmagan holda) sharoitlar yaratish.

4.5. Tomonlarning Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq qo'llaniladi.

V. Munozarali vaziyatlarni hal etish tartibi

5.1. Mazkur Shartnomani bajarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar va kelishmovchiliklar imkon qadar Tomonlar o'rtasida muzokara o'tkazish yo'li bilan hal etiladi.

5.2. Nizolar va kelishmovchiliklarni Tomonlar o'rtasida muzokara o'tkazish yo'li bilan hal etib bo'lmaydigan holatlarda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan kelishmovchiliklarni suddan oldin bartaraf qilish tartib-taomili amalga oshirilgandan so'ng ular O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda sudga ko'rib chiqish uchun byeriladi.

VI. Fors-majior holatlar

6.1. Tomonlar majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar bunday holatlar engib bo'lmas kuch, ya'ni tabiiy ofatlar, tabiiy va texnogen tushdagi favqulodda holatlar va alohida davr oqibati hisoblangan va davlatning tegishli organlari tomonidan tasdiqlansa, javobgarlikdan ozod qilinadi. Bunda mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati mutanosib ravishda ushbu hodisalar ro'y byergan muddatga suriladi.

VII. Yakunlovchi qoidalar

7.1. Ushbu Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar faqat ular yozma shaklda rasmiylashtirilib, Tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolanganidan so'ng haqiqiy hisoblanadi. Mazkur Shartnomaning barcha ilovalari uning ajralmas qismini tashkil etadi.

7.2. Tomonlarning hech biri mazkur Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini boshqa Tomonning yozma shaklidagi rozilgisiz biror bir uchunchi tomonga byerib yuborishi mumkin emas.

7.3. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan. Ikkala nusxa aynan bir xil bo'lib, bir xil yuridik kuchga ega. Tomonlarning har birida mazkur Shartnomaning bir nusxasi bo'ladi.

VIII. Korrupsiyaga qarshi shartlashuv

8.1. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishoniradi va ularga amal qilish ini kafolatlaydi.

8.2. Iste'molchi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mohaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) Ta'minotchi korxonaning manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Ta'minotchi korxonaning hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarining Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.

IX. Shartnomaning amal qilish muddati

9.1. Ushbu Shartnoma imzolangan paytdan kuchga kiradi va bir kalendar yili davomida yoki muddatidan oldin bekor qilinguniga qadar amal qiladi.

X. Tomonlarning manzili va bank rekvizitlari

«Autorsiyer»

«Buyurtmachi»

"Shaxnoza parvina taraqqiyot sari"

МЧП

Manzil: A.Navoiy ko'cha 5-uy

Tel: +998937604736

x/r 20208000505180542001

MFO: 00324 INN 305281763

ТЕРМИН Ш. "ТИФ МИЛЛИЙ БАНКИ" АЖ
СУРХОНДАРЁ ВІЛОЯТИ ФИЛИАЛИ

Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy
markazi surxondaryo filiali

Manzil: A.Navoiy ko'cha 5-uy

Tel: +76 225 09 33

x/r 100021860224017073102054001

INN : 202925044 MFO: 00014

Moliya Vazirligi yagona g'azna hisob raqami

x/r: 23402000300100001010 INN: 201919768

Bank: Toshkent sh XKKM

Raxbar:  A. Buranov,


(подпись)

Raxbar:  A.T. Eshboev,

(подпись)







2

Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 36386 на приобретение беморларга иссиқ оват таёрлаш ва таркатиш хизмати(аутсорсинг)

Способ проведения электронный

Дата 05.03.2022

Время рассмотрения 05.03.2022 11:52

Конкурсная комиссия Республика шошилинч тиббий ёрдам илмий маркази Сурхондарё филиали, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	XUJAKULOV KAMARIDDIN KARSHIYEVICH	Бош врач	Республика шошилинч тиббий ёрдам илмий маркази Сурхондарё филиали
Секретарь комиссии	JURALIYEV MUXRIDDIN MUSURMANOVICH	Моддий ашёлар ва озиковкат хисобчиси	Республика шошилинч тиббий ёрдам илмий маркази Сурхондарё филиали
Член комиссии	SAIDOV JAXONGIR NORSAFAROVICH	Бош хисобчи	Республика шошилинч тиббий ёрдам илмий маркази Сурхондарё филиали
Член комиссии	JALILOV MIRZOHIDDEN HAYDAROVICH	Бош хисобчи	Республика шошилинч тиббий ёрдам илмий маркази Сурхондарё филиали
Член комиссии	ISKANDAROV ERGASH RUZIKULOVIH	Илмий ишлар директор уринбосари	Республика шошилинч тиббий ёрдам илмий маркази Сурхондарё филиали
Член комиссии	ESHBOYEV ABDULHAKIM TO'LAGANOVICH	Директор	Республика шошилинч тиббий ёрдам илмий маркази Сурхондарё филиали

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 05.03.2022 года № лота 36386.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.техничко-квалификационной части: 70.00 / Весовой коэф. ценовой части: 30.00)

Мин. балл: 30

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга аутсорсинга по доставке еды
Подробное описание	беморларга иссиқ оват таёрлаш ва таркатиш хизмати(аутсорсинг)
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	100 000 000.00
Стартовая сумма	100 000 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие

баллы:

Критерий №1 Наличие специалистов

Тип: Текстовое значение

Описание: наличие имеющих не мене 3х человек специализированный квалифицированный специалистов (прилагать копия трудовых книжки, медицинской книжки пищевого блока)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО FAXRIDDIR QIZI GULHAYO	55	55	48	Экспертная		
SHAXNOZA PARVINA TARAQQIYOT SARI XK	55	55	55	Экспертная		

Критерий №2 Стадия участника

Тип: Текстовое значение

Описание: не находящиеся в стадии реорганизации, ликвидации и банкротств, справка с ГНИ о задолженности

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО FAXRIDDIR QIZI GULHAYO	55	55	50	Экспертная		
SHAXNOZA PARVINA TARAQQIYOT SARI XK	55	55	55	Экспертная		

Критерий №3 Стаж работы

Тип: Текстовое значение

Описание: Стаж работы должно не мене 3 х лет в сфере услуг по организации общественного питания (аутсорсинг) а (перечень организации работавших в сфере аутсорсинга течение 3-х лет, свидетельство о регистрации)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО FAXRIDDIR QIZI GULHAYO	55	55	48	Экспертная		
SHAXNOZA PARVINA TARAQQIYOT SARI XK	55	55	55	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
ООО FAXRIDDIR QIZI GULHAYO	100 000 000.00	99 874 999.00	04.03.2022 19:00:20	29.86
SHAXNOZA PARVINA TARAQQIYOT SARI XK	100 000 000.00	99 394 035.00	04.03.2022 19:09:22	30.00

✓

Итоговая оценка участников включая финансовую часть составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
ООО FAXRIDDIR QIZI GULHAYO	61.6	29.86	91.46
SHAXNOZA PARVINA TARAQQIYOT SARI XK	70	30	100

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 36386 от 05.03.2022 года на приобретение беморларга иссиқ оват таёрлаш ва тарқатиш хизмати(аутсорсинг) определила победителем:

SHAXNOZA PARVINA TARAQQIYOT SARI XK
305281763

и резервный исполнитель: ООО FAXRIDDIR QIZI GULHAYO (308309414)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Член комиссии	ESHBOYEV ABDULHAKIM TO'LAGANOVICH	Согласен	
Член комиссии	SAIDOV JAXONGIR NORSAFAROVICH	Согласен	
Член комиссии	JALILOV MIRZOHIDDIN HAYDAROVICH	Согласен	
Член комиссии	ISKANDAROV ERGASH RUZIKULOVICH	Согласен	
Председатель комиссии	XUJAKULOV KAMARIDDIN KARSHIYEVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП